



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA SONLARNING KONSEPTUAL VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

G.Samandarova *

Annotatsiya

Maqolada o'zbek xalq maqollarida uchraydigan sonlarning lingvokulturologik va konseptual talqinlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Xalq tafakkurida sonlar nafaqat miqdoriy birlik, balki ramziy-ma'naviy kod, qadimiy mifologik qarashlar, diniy an'analar va ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi timsollar sifatida yoritiladi. Tadqiqotda uch, yetti, to'qqiz, qirq kabi muqaddas sonlarning o'zbek xalqi dunyoqarashi va marosimiy amaliyotidagi o'rni izohlanadi. Shuningdek, Qur'on va hadis manbalarida sonlar bilan bog'liq ramziy timsollarning xalq og'zaki ijodiga singishi ko'rsatib o'tiladi. Maqolada son komponentlarining estetik, semantik hamda konseptual xususiyatlari lingvomadaniy yondashuv asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, konsept, son komponenti, ramziy timsol, semantika, mifologiya, Qur'on, hadis, estetik ohang, xalq tafakkuri, milliy qadriyat, madaniy kod, marosim, xalq og'zaki ijodi, o'zbek maqollari

Conceptual and Linguocultural Features of Numbers in Uzbek Folk Proverbs

Abstract

The article provides a scholarly analysis of the conceptual and linguocultural interpretations of numbers occurring in Uzbek folk proverbs. In the worldview of the people, numbers are considered not only as quantitative units but also as symbolic and spiritual codes, reflecting ancient mythological beliefs, religious traditions, and socio-cultural values. The study explains the significance of sacred numbers such as three, seven, nine, and forty in the worldview and ritual practices of the Uzbek people. It also highlights how symbolic representations of numbers found in the Qur'an and Hadith have merged into oral folk creativity. The article reveals the aesthetic, semantic, and conceptual features of numerical components within a linguocultural approach.

Keywords: linguoculturology, concept, numerical component, symbolic representation, semantics, mythology, Qur'an, Hadith, aesthetic expression, folk worldview, national values, cultural code, ritual, oral folklore, Uzbek proverbs

Lingvokulturologiya tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri sifatida XX asr oxiridan boshlab faol rivojlandi. Ushbu fan til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq etadi hamda til birliklarida xalqning milliy dunyoqarashi,

* Buxoro davlat universiteti, O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD) g.y.samandarova@buxdu.uz
ORCID: 0000-0002-8251-3891

qadriyatlari va mentaliteti qanday aks etishini aniqlashga qaratilgan. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy-madaniy tajribasini saqlovchi va uzatuvchi mexanizm sifatida ham qaraladi.

Lingvokulturologiya XX asr oxiri va XXI asr boshlarida shakllangan tilshunoslikning nisbatan yangi tarmoqlaridan biridir. U klassik tilshunoslikda mavjud bo'lgan strukturaviy, semantik va funksional yondashuvlardan farqli ravishda tilni madaniyat bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida o'rganadi. Mazkur yo'nalishning shakllanishiga nemis tilshunosi V. fon Gumboldtning "til – xalq ruhining ko'zgusi" haqidagi qarashlari hamda keyinchalik Sapir–Uorf gipotezasi muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan (Gumboldt, 1985, 39-bet).

Lingvokulturologiyaning rivojlanishiga kognitiv tilshunoslikning konseptual tahlil usullari ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Konsept tushunchasi millat ongida muayyan madaniy ahamiyatga ega bo'lgan bilim, tajriba va ramzlarning umumlashgan modelidir. Shu bois lingvokulturologiya milliy madaniyatni til birliklari orqali o'rganishda konseptlarni markaziy tushuncha sifatida qabul qiladi. Masalan, "son" konsepti barcha tillarda mavjud bo'lsa-da, uning ramziy talqini milliy madaniyatga ko'ra turlicha shakllanadi.

Lingvokulturologiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Til va madaniyatning o'zaro uyg'unligi. Til madaniyatdan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi; har bir til xalqning tarixiy xotirasi va madaniy qadriyatlarini saqlovchi tizim sifatida qaraladi.

Milliy o'ziga xoslik. Har bir xalqning lingvokulturologik tajribasi o'ziga xos bo'lib, umumiy insoniy qadriyatlar fonida milliy tafakkur shakllanadi.

Konseptual yondashuv. Lingvokulturologik tadqiqotlarda konseptlar asosiy birlik sifatida olinadi; ular milliy ongda muhim ramzlar sifatida til birliklarida aks etadi.

Madaniy semantika. Til birliklari, jumladan maqollar, faqat grammatik yoki leksik jihatdan emas, balki madaniy kodni ifodalovchi semantik qatlam orqali ham tahlil qilinadi.

Antroposentrizm. Til birliklari inson va uning dunyoqarashiga nisbatan o'rganiladi. Bu tamoyilga ko'ra, har bir lingvokulturologik tahlil markazida inson va uning madaniy-tarixiy tajribasi turadi.

Lingvokulturologiyaning o'ziga xos jihatlaridan yana biri – uning fanlararo qo'llanish xususiyatidir. Ya'ni u tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnologiya, sotsiologiya, tarix va psixologiya bilan uzviy aloqada bo'lib rivojlanadi. Masalan, xalq maqollaridagi son komponentlarini o'rganish nafaqat lingvistik, balki etnografik, mifologik va diniy bilimlarni ham talab etadi.

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologik izlanishlar keyingi o'n yilliklarda faol rivojlanib bormoqda. Xususan, xalq og'zaki ijodidagi maqollar, matallar, iboralar

va ramziy birliklar tahlili orqali milliy konseptlar tizimi aniqlanmoqda. Shu jarayonda son konsepti xalq mentalitetini yoritishda muhim vosita sifatida maydonga chiqadi.

Demak, lingvokulturologiya tilda saqlanib qolgan qadriyatlarni, tarixiy tajribalarni va milliy dunyoqarashni ilmiy asosda o'rganish imkonini beruvchi nazariy-amaliy yo'nalish bo'lib, son komponentli maqollarni tahlil qilish uchun zaruriy metodologik poydevor hisoblanadi.

Y.S.Stepanov tilda xalq ruhining aks etishini "madaniyatning kognitiv modeli" deb atagan. A. Vejbitskaya esa universal konseptlar nazariyasida ayrim birliklarning umumiylikni ifodalashini, ammo ularning milliy tilda ramziy jihatdan o'ziga xos rang olishini ta'kidlaydi. Shu jihatdan, maqollar tarkibidagi son komponentlari universal bo'lishiga qaramay, har bir xalq tilida ular o'ziga xos milliy ma'noga ega bo'ladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida sonlar faqat miqdoriy birlik emas, balki ramziy ma'no yuklovchi, qadimiy dunyoqarash va milliy tafakkur ko'rinishi sifatida ham namoyon bo'ladi. Xalq tafakkurida sonlar muayyan kosmogonik tasavvurlarni, ijtimoiy qadriyatlarni hamda axloqiy-me'yoriy tushunchalarni o'zida mujassam etgan. Shu bois son komponentli maqollar xalqning dunyoqarashini, qadimiy mifologik qarashlarini va ma'naviy an'alarini ifodalovchi lingvomadaniy vosita sifatida alohida o'rin egallaydi.

A.Qayumov ta'kidlaganidek, uch, yetti va qirq kabi sonlar xalq tafakkurida eng qadimiy va muqaddas timsollar sifatida shakllangan. Uch soni kosmogonik tasavvurlarda osmon, yer va suvni bildirsa, inson hayotida bolalik, o'rta yosh va qarilik davrlari bilan bog'lanadi. Yetti soni mukammallik va barkamollik ramzi sifatida xalq maqollarida ko'p uchraydi. Qirq soni esa marosimiy an'analarda muhim ahamiyat kasb etib, tug'ilish va o'lim bilan bog'liq o'tish bosqichlarini anglatadi (A.Qayumov, 1978, 178-183).

H.Karomatovning qayd etishicha, xalq dunyoqarashida sonlar ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar bilan ham chambarchas bog'langan. Bir soni birlik va haqiqat timsoli, ikki soni muvozanat va ziddiyatning ramzi, yetti soni esa muqaddaslik va marosimiy barqarorlik belgisi sifatida shakllangan. Xususan, yangi kelinni yetti uyga olib kirish odati yoki bola tug'ilgach qirq kunlik marosimlar xalq hayotiy sikllaridagi ramziy belgilar hisoblanadi (Karomatov H. 1985, 94-100).

T. Mirzayev esa turkiy xalqlar mifologiyasida sonlarning tarixiy ildizlarini ko'rsatadi. To'qqiz soni qadimiy mifologiyada to'liq sikl ramzi sifatida qo'llangan bo'lsa, yetti soni "yetti iqlim" tushunchasi bilan bog'langan, qirq soni esa hayot-mamot chegarasi, marosimiy davrni bildiruvchi muhim ramz sifatida talqin qilingan (T.Mirzayev, 2005, 310-318).

H.Karimov sonlarning estetik va semantik xususiyatlarini alohida ta'kidlaydi. Unga ko'ra, sonlar xalq maqollarida nafaqat semantik yuklamaga ega, balki ritmik ohangni ta'minlaydi va badiiy umumlashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Masalan, “Yetti o‘lchab, bir kes” maqolida sonlar ehtiyotkorlik, mukammallikka intilish va estetik obrazni uyg‘unlashtirgan.

Shunday qilib, sonlarning qadimiy tasavvurlardagi ramziy talqini xalq tafakkurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining lingvomadaniy kodlari sifatida shakllangan. Maqollarda ular xalqning diniy-mifologik tasavvurlari, ijtimoiy-axloqiy me’yorlari va estetik didini ifodalashda muhim vazifani bajaradi.

O‘zbek xalqining og‘zaki ijodi va madaniy an’analarida sonlar qadimdan muhim semantik yuklamaga ega bo‘lgan. Sonlarning xalq dunyoqarashidagi ramziy talqinlari ko‘proq kosmogonik qarashlar, diniy-mifologik tasavvurlar va ijtimoiy-maishiy urf-odatlarda o‘z ifodasini topgan. Bu holat son komponentli maqollarda yanada yorqin ko‘rinadi.

O‘zbek mifologik dunyoqarashida “uch” soni olamning uchlik tizimini – osmon, yer va suvni; inson hayotidagi uch bosqichni – bolalik, o‘rta yosh va qarilikni bildirgan. Shu bois xalq maqollarida “uch” ko‘pincha tabiiy muvozanat va hayotiy siklning tugallanganligini anglatadi.

“Yetti” soni esa turkiy xalqlar dunyoqarashida muqaddas timsol bo‘lib kelgan. “Yetti qat osmon”, “yetti qat yer” haqidagi tasavvurlar qadimgi kosmogonik qarashlarning izidir. O‘zbek xalq urf-odatlari ham bu son marosimiy barqarorlik timsoli sifatida mustahkam o‘rin egallagan: yangi tug‘ilgan chaqaloqqa yetti kun ichida ism qo‘yiladi, odam vafot etgach yettinchi kuni xotirlash marosimi o‘tkaziladi. Bu jarayonlarning barchasi sonlarning ramziy ma’nosi xalq hayotining muqaddas qonuniyatlariga singib ketganini ko‘rsatadi.

“Qirq” soni o‘zbek xalqining marosimiy-madaniy amaliyotida alohida o‘rin tutadi. Chaqaloq tug‘ilgach qirq kun chilla marosimlari, qirqinchi kuni bolaning sochini olish yoki ona bilan chaqaloqni hammomga olib borish odatlari mavjud. Shuningdek, xalq orasida “qirq yil qadrini unutmas” degan hikmat ham mavjud. Bu sonning ramziy ma’nosi hayotiy bosqichlarning tugallanishi va yangilanishi bilan bog‘liqdir.

“To‘qqiz” soni esa qadimiy turkiy dunyoqarashda to‘liq sikl va mukammallik belgisi bo‘lib kelgan. Masalan, qadimiy turkiy bitiklarda “to‘qqiz o‘g‘uz eli” yoki “to‘qqiz urug‘” kabi tushunchalar uchraydi. O‘zbek maqollarida ham bu son jamiyatdagi birlik va to‘liqlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Sonlarning bunday ramziy talqinlari, bir tomondan, qadimgi mifologik qarashlar bilan, ikkinchi tomondan esa, xalqning diniy e’tiqodlari bilan bog‘liqdir. Masalan, Qur’oni Karimda “yetti qat osmon”, “yetmish marta” kabi timsollar ishlatiladi. Islomiy tasavvurlarning xalq ongiga singib ketishi natijasida o‘zbek maqollarida yetti va yetmish sonlari ko‘pincha mubolag‘a, mukammallik va muqaddaslik ramzi sifatida ishlatiladi.

Islom dini o'zbek xalqining dunyoqarashida markaziy o'rin tutganligi sababli, Qur'on va hadis manbalarida keltirilgan sonli timsollar xalq tafakkuriga chuqur singib ketgan. Bu holat son komponentli maqollarda ham o'z aksini topgan.

Qur'onda "yetti qat osmon" (Qur'on Karim. Suralar: al-Mulk (67:3) va "yetti qat yer" (Qur'on Karim. Suralar: at-Talaq (65:12) tushunchalari insoniyatning kosmogonik tasavvurlariga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Shu asosda xalq og'zaki ijodida "yetti" soni mukammallik, barkamollik va muqaddaslik ramzi sifatida mustahkamlanib qolgan.

"O'n ikki" soni Qur'onda Muso qavmi bilan bog'liq holda tilga olinadi: "Va Biz Musoga vahiy qildikki, toshga asoni ur! Undan o'n ikki chashma otilib chiqdi" (al-Baqara, 60). Bu son xalq tafakkurida baraka, mo'l-ko'llik va tabiat bilan uyg'unlik ramzi sifatida talqin qilingan.

Hadis rivoyatlarida "uch" soni ko'p marotaba eslatiladi. Masalan, Rasululloh (s.a.v.) dedilar: "Uch narsadan ilgari sekinlanmang: namozni vaqti kirganda, janozani hozir bo'lganda va qarzini ado etishda" (Ibn Moja rivoyati). Bu holat "uch" sonining muhim diniy-axloqiy masalalarni anglatishda ramziy timsol sifatida qo'llanilganini ko'rsatadi.

Shuningdek, "qirq" soni Qur'on va hadis asosida marosimiy ramzga aylangan. Qur'onda Muso alayhissalomning "qirq kecha"lik va'dasi zikr etiladi (al-Baqara, 51). Hadisda esa Rasululloh (s.a.v.) dedilar: "Kim qirq kun ixlos bilan namozda takbirni birinchi bo'lib aytsa, unga ikki narsaga yoziladi: jahannamdan najot va nifoqdan xalos bo'lish" (Termiziy rivoyati). Shu bois xalq orasida chaqaloq va onaning qirq kunlik "chegara davri"ni hurmat qilish, marhumni qirq kun o'tgach xotirlash kabi urf-odatlar shakllangan.

"Yetmish" soni esa mubolag'a va cheksizlik ramzi sifatida Qur'onda ham, hadisda ham uchraydi. Masalan, Qur'onda aytiladi: "Agar ular uchun yetmish marta mag'firat so'rasang ham, Alloh ularga mag'firat qilmaydi" (at-Tavba, 80). Bu timsol xalq maqollarida "Yigit kishiga yetmish hunar oz" kabi shaklda umumlashgan.

Demak, Qur'on va hadis manbalaridagi sonli ramzlar xalq ongida diniy-ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashib, maqollarda lingvomadaniy kod sifatida mustahkam o'rin egallagan.

Folklorshunoslikda qayd etilishicha, sonlarning xalq tafakkuridagi ramziy talqini nafaqat semantik, balki poetik vazifa ham bajaradi. Ular maqollar ritmikasin ta'minlaydi, qisqa va lo'nda fikrni mustahkamlaydi, umumlashtirish kuchini oshiradi. Masalan, "Yetti o'lchab, bir kes", "Ikki qo'l qilgan ishni bir qo'l qilolmas" kabi maqollar xalqning qadimiy donishmandligi va estetik didini aks ettiradi.

Shu asosda aytish mumkinki, sonlarning qadimiy tasavvurlardagi ramziy talqini o'zbek xalqining milliy tafakkuri va ma'naviy dunyosida muhim lingvomadaniy kod bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek xalqining dunyoqarashida sonlar qadimiy kosmogonik, mifologik va diniy an'analarning davomchisi sifatida qabul qilingan. Bu tasavvurlar sonlarni nafaqat miqdoriy birlik, balki xalqning ma'naviy olamida qadriyatlarni mujassam etuvchi ramziy timsollarga aylantirgan.

Etnografik manbalarda qayd etilishicha, o'zbek xalqining kundalik hayotida sonlar tabiat qonuniyatlari va hayotiy sikllar bilan bevosita bog'langan. Masalan, ekin ekish, hosil yig'ish yoki chorva boqishda muayyan sanalar va marosimlar soniy tartibga asoslangan. Bu holat sonlarning xalqning dehqonchilik va chorvachilik madaniyatida ham muqaddas belgilar sifatida mustahkam o'rinishidan dalolat beradi (S. Jalolov, 1987, 56-63).

Folklorshunoslar ta'kidlashicha, sonlar qadimiy e'tiqodlarda muhofaza va baraka ramzi sifatida ham talqin qilingan. Xususan, bolani "uch marta atrofiga aylantirish", yangi uyga kirishda "yetti marta non ko'tarib kirish", marhumni "qirqinchi kuni xotirlash" kabi marosimlar xalq ongida sonlarning himoya va baraka keltiruvchi kuchiga bo'lgan ishonchni aks ettiradi.

Lingvomadaniyat nuqtayi nazaridan qaralganda, sonlarning ramziy talqini xalq tafakkurida kognitiv model vazifasini bajaradi. Ular dunyoni tartibga solish, vaqt va makonni belgilash, ijtimoiy munosabatlarni izohlashda semantik tayanch bo'lib xizmat qiladi. Masalan, "bir" soni yaxlitlik va yagona haqiqatni, "ikki" qarama-qarshilik va muvozanatni, "uch" esa muvofiqlik va to'liqlikni anglatadi.

Shuningdek, turkiy xalqlar orasida sonlarning ramziy talqini genealogik tizimlar bilan ham uzviy bog'liq bo'lgan. "Uch urug'", "to'qqiz urug'", "qirq qabila" kabi tushunchalar o'zbek maqollarida ham aks etib, sonlarning ijtimoiy struktura belgisi sifatida ishlatilganini ko'rsatadi.

Maqollarda sonlarning qo'llanishi ularning xalq tafakkurida shakllangan qadriyatlar tizimini ham yoritadi. "Yetti uyga bo'lingan taom baraka keltiradi" yoki "Bir qadam orqaga, o'n qadam oldinga" kabi hikmatlar xalqning iqtisodiy hayoti, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy tajribasini umumlashtirib, ramziy soniy tizim orqali ifodalaydi.

Demak, o'zbek xalqining qadimiy dunyoqarashida sonlar ramziy belgi, marosimiy vosita va lingvomadaniy kod sifatida shakllangan. Ular xalqning diniy-mifologik qarashlari, ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlari va badiiy tafakkuri bilan uzviy aloqada bo'lib, maqollar orqali bugungi kungacha yetib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

Гумбольдт, В. фон. (1985). *О различии строения человеческих языков и его влияния на духовное развитие человечества*. Язык и философия культуры. Москва: Прогресс.

Qayumov A. *O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi*. Toshkent: Fan.

Karomatov H. (1985). *O'zbek xalq og'zaki ijodi*. Toshkent: O'qituvchi.

- Mirzayev T. (2005). *O'zbek xalq og'zaki ijodi tarixi*. Toshkent: Fan.
- Qur'on Karim*. Suralar: al-Mulk (67:3), at-Talaq (65:12).
- Ibn Moja. (2009). *Sunan ibn Majah*. – Qohira: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
- At-Tirmiziy. (1998). *Jami' at-Tirmidhi*. – Bayrut: Dar Ihya at-Turath.
- Bozorov Z. (2021-2022). *International scientific and practical conference "Modern psychology and pedagogy: problems and solutions"* "Imperial College London".
- Bozorov Z. *Essence, structure and functions of civil culture. International engineering journal for research & development*. Published in Volume 6 Special Issue , January 2021 of IEJRD E-ISSN: 2349-0721 , Peer Reviewed & Referred Journal.
- Bozorova G. (2024). *Formation of abbreviations in medical terminology in uzbek language* //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. Toshkent.
- Samandarova G. Y. (2021). *Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects*. Current research journal of philological sciences, 2 (05).
- Samandarova , G. Y. (2023). Basis of the lexical sentence group "insect" in the form of a compound sentence. *International scientific conference " innovative trends in science, practice and education"*, 2(4), 59–67. Retrieved from <http://academicsresearch.ru/index.php/iscitspe/article/view/1493>
- Bozorov Z. A. "Exceptional role of motives and needs within the formation process of civic culture in students' community." *Journal of Advanced Zoology* 44 (2023): 3236-3244. <https://jazindia.com/index.php/jaz/article/view/1595>
- Ashurovich, Bozorov Zayniddin. "Great Oriental Intellectuals about Civil Culture." *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal* 2 (2023): 21-24. <https://innosci.org/wos/article/view/968>
- Samandarova G. Yusupova A. Specific characteristics of paremas formed on the basis of "Insect" LMG in a simple sentences // *Best journal of innovation in science, research and development*. Volume 2 No 6 (Jun 2023). ISSN: 2835-3579 .(Impact factor: SJIF=9.1)
- Samandarova G.Y. Sodda gap ko'rinishidagi "hasharot" lug'aviy ma'no guruhlari asosida shakllangan paremalarning o'ziga xos xususiyatlari // *Scientific reports of Bukhara state university*. 2023/1 (84). –B.